

Jamiyatni tanazzul sari yetaklaydigan, har bir millat kelajagini xavf ostida qoldiruvchi illatlardan biri bu shubhasiz korrupsiya va poraxo'rlikdir. Ushbu illatlar jamiyatdaadolatsizlik, tengsizlik va aholining noroziligiga olib keladi, bu esa barcha sohadagi islohotlarning natijasiga salbiy ta'sir etmay qolmaydi.

Xalqaro valyuta jamg'armasining ma'lumotlarida dunyoda korrupsiya va poraxo'rlik natijasida yiliga 1,5-2 trillion dollar mablag' o'zlashtirilib, jahon iqtisodiyotiga juda katta zarar yetkazilayotgani qayd etilgan. Shu bois korrupsiya va poraxo'rlikni hech ikkilanmay "asr vabosi" va "taraqqiyot kushandasasi" deb atash mumkin.

Korrupsiya chegara bilmaydi. U jamiyatning barcha jabhalariga kirib borib, qadriyatlar tizimi, odob-axloq me'yorlarini buzadi. Fuqarolarning erkinlik va demokratiya tamoyillariga, adolatga, davlatga bo'lgan ishonchiga putur yetkazadi. Bir so'z bilan aytganda, ushbu illatni bartaraf etmasdan turib, hech qanday jamiyat barqaror rivojlanishi mumkin emas.

Korrupsiyaga qarshi kurashish O'zbekistonda davlat siyosatining eng ustuvor yo'naliishlaridan biri hisoblanadi. Buni so'nggi yillarda sohaga oid qabul qilingan konseptual ahamiyatga ega normativ-huquqiy hujjatlar, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan ma'muriy islohotlar misolida ham ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasida O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat va uning organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdar shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish yuritadilar, deb belgilangan. Shunday ekan, davlatning yuzi bo'lgan Konstitutsiya fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishi barobarida, davlat organlarida xizmat qilayotgan mansabdar shaxslarni, xizmatchilarni fuqarolar manfaatlariga zid keluvchi xatti-harakatlardan tiyilishni talab etadi.

Mamlakatimizda korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi jiddiy kurash olib borilmoqda. Respublika Bosh prokuraturasi ma'lumotlariga ko'ra 2024-yilda O'zbekistonda 4906 nafar mansabdar shaxs jinoiy javobgarlikka tortildi, bu 2023-yilga (3575) nisbatan 37,2 foizga ko'p. Javobgarlikka tortilgan mansabdar shaxslarga nisbatan jinoyat ishlari soni 3821 tani tashkil etdi, bu 2023-yilga (3412) nisbatan 12 foizga ko'p. Ular davlat va jamiyat manfaatlariga 3,6 trln so'm yoki o'tgan yilga nisbatan 2,3 barobar ko'proq zarar yetkazdi.

Mana shunday korrupsioner va poraxo'rlar davlatimiz rivojlanishiga, xalqimizning yanada farovon yashashiga to'siq bo'lmoqda. Bu illatga qarshi kurashish tegishli organlarninggina emas, barchaning ishi bo'lishi zarur. Shundagina biz ushbu xavfni bartaraf etgan bo'lamiz. Ularga qarshi kurashish bilan biz vatanimiz, xalqimizning taraqqiyoti, oilamiz farovonligini ta'minlashga erishamiz.

"Korrupsiya va poraxo'rlik illatlarini birlgilikda yengamiz", degan fikrni har birimiz ongimizda shakllantirishimiz shart. Bu borada o'nglanish, siljish qilmasak, korrupsiya illati farovonchiligidan soya solib turaveradi. Toki, biz oilada, ishxonada, mакtabda o'g'il-qizlarimiz ongiga, ruhiyatiga tamagirlilik, poraxo'rlik yomon illatgina emas, balki u jamiyatimiz tanazzuli, iqtisodiyotimiz orqaga ketishi sababi ekanligi haqida ko'proq tarbiyaviy va targ'ibot ishlarini olib bormasak, maqsad-muddaoga erisha olishimiz qiyin.

Qadrli metallurglar! Korrupsiyaga qarshi kurashish barchamizning burchimiz ekanligini anglashimiz, uning oldini olish, yo'q qilish, unga nisbatan murosasiz bo'lishda har birimiz o'z hissamizni qo'shmog'imiz zarur. Zero, har qanday huquqbuzarlik, jinoyatning sodir etilishiga, ularning ko'payishiga va barham berilmasligiga o'zimizning befarqligimiz, loqaydligimiz sabab bo'lishi mumkin. Barchaning korrupsiyaga qarshi kurashish yo'lida bir maqsad sari birlashib, harakat qilishi, davlatimiz taqdiriga befarq qaramasligi har qanday ko'rinishdagi korrupsiyaning barham topishiga xizmat qiladi.

Shu o‘rinda, kombinatimizda korruption harakatlar sodir etilganligining guvohi bo‘lganligizda, bu kabi salbiy holatlarning oldini olish va unga qarshi kurashish har biringizning burchingiz ekanligini yodda tuting!

“O‘zmetkombinat” AJda va uning hududiy filiallarida korruptionsiyaviy xatti-harakatlar, xizmat vakolatini suiistemol qilish, xizmat vakolatlaridan chetga chiqish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yish, odob-axloq talablarini buzish holatlarining oldini olish maqsadida “Aloqa raqami” faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

Agar sizda kombinat faoliyati bilan bog‘liq muammo bo‘lsa 1707 kombinatning ichki telefon raqamiga hamda 70 214 19 17 va 90 998 67 20 raqamlariga qo‘ng‘iroq qilib murojaat etishingiz mumkinligini va murojaatchining shaxsi sir saqlanishi kafolatlanishini eslatib o‘tamiz.

To‘lqin Xojiyev “O‘zmetkombinat” AJning Kuzatuvi
Kengashi huzuridagi Komplayens xizmati boshlig‘i.